

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**
ASQAD MUXTOR VA ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTI

**ADABIYOT NAZARIYASI VA ZAMONAVIY ADABIY JARAYON
KAFEDRASI**



**Atoqli o'zbek yozuvchisi ASQAD MUXTOR
tavalludining 100 yilligi munosabati bilan
"ASQAD MUXTOR VA ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTI"
mavzusidagi
RESPUBLIKA ILMUY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
materiallari to'plami**

Toshkent - 2020 yil, 23 dekabr

Mas'ul muharrirlar:

f.f.d., prof. Sh.S.Sirojiddinov

f.f.d., prof. B.N.Karimov

Taqrizchilar:

f.f.n., dots. A.Ulug'ov

f.f.n., dots. v.b. O.Usmonov

Nashrga tayyorlovchi:

PhD., R.Tulaboyeva

"Oltin bitiklar" jurnali tahririyatida tahrir qilindi. 20.01.2021

foydalananadi. Jumladan, birinchi qissa yakuniga yetgach, adib yo'l davomida shofyorning yurt go'zalligi haqidagi kichkina bir lavhadan keyin o'quvchilarini o'z qahramonlari o'tmishidan olingan hikoyatga yetaklaydi.

Xulosa qilib aytganda, romanda Asqad Muxtor inson qalbi, ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etib, qalb zargari sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining o'ziga xos badiiy olami, uslubi, tafakkur tarzi bevosita u yaratgan obrazlarda o'z aksini topadi.

Adabiyotlar:

1. Muxtor A. Chinor. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1969.
2. Normatov U. Ijod sehri. -T.: Sharq NMAK, 2007.
3. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. -T.: Sharq, 2007.
4. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. -T.: Turon-Iqbol, 2011.

Xurshida RAXMONOVA
ToshDO'TAU o'qituvchisi

HIKOYADA FIKRSIZLIK MUAMMOSINING BADIY TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Asqad Muxtorning "Chodirxayol" hikoyasi davr va shaxs nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Adibning "Chodirxayol" hikoyasi qahramoni Yettovlon va Xurshid Do'stmuhammadning "Jim o'tirgan odam" hikoyasidagi Qurbonali obrazlari qiyoslab badiiy talqin etilgan. Fikrlashdan, ongidan, aqliy tafakkuridan mahrum insonning ma'naviy fojiasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: inson obrazi, badiiy reallik, aqliy tafakkur, ma'naviy fojia, fikriy tanballik, buyruqbozlik mafkurasi, retrospektiv syujet, ichki nutq, xotira jarayoni.

Atoqli adib Asqad Muxtor ijodining kattagina qismi sobiq sho'ro davriga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, u mustaqillik davri imkoniyatlaridan ham bahramand bo'la oldi. Adib o'zbek adabiyotini she'r, hikoya, doston,

qissa va romanlar bilan boyitdi. O'zbek hikoyachiligi tarixida nosirning 1988 yilda e'lon qilingan "Chodirxayol" hikoyasi alohida o'rinni egallaydi. Hikoyada sho'roviy tazyiq ostida mustaqil fikrlashdan mahrum etilgan va buni o'zining qismati deb qabul qilgan inson obrazining fojiasi tasvirlab berilgan. Hajman kichkina bo'lishiga qaramay, bu hikoyada yozuvchi o'sha davrning ijtimoiy ahvoli, odamlarning fikrlashi, turmush tarzini munosib ochib bergan. Ular yuqori markazdan berilayotgan buyruqlarni so'zsiz bajarish bilan bir qatorda, o'z qadr-qimmatini, o'zligini unutgan kimsalardir. Ya'ni asarda buyruqbozlik davrining nafasi ufurib turibdi. Yetti kishining turish-turmushi kavakda tuproq qazish, tashish, yuqoriga uzatishdan iborat. Hikoyadagi qahramonlarning hatto nomlari ham yo'q. Birinchi, Ikkinchchi, Uchinchi... Yettinchi deb nomlangan. Ular o'zlarining insonligini, nima uchun yashayotganlarini anglab ham yetishmaydi. Bu haqda o'ylab ko'rishga ham yo'l berilmagan. Yettinchi onda-sonda sheriklariga bir-ikkita savol beradi. Lekin uning savollarini hech kim yoqtirmaydi. Ya'ni savol bergen odam bu fikrlay boshlagan insondir. Bunday odam esa sovet hukumatiga unchalik ham yoqavermasdi. Ularga umuman fikrlamaydigan, yuqoridan kelgan buyruqlarni so'zsiz bajaradiganlar kerak edi. Hatto yonlarida o'lim sharpasi sezilib turganda ham yuqoridan bir ko'rsatma kelmasa, tuproq bosgan qorong'u kovakdan chiqishga jur'at qilolmaydigan, harakat qilmaydigan fikriy dangasa odamlar obrazi yaratilgan. "Axir, avval bu qora go'r dan qanday qutulib chiqishni o'ylamaymizmi?

- Buni o'ylaydiganlar bor, akasi, - dedi barini beliga qisdirib, ketmonni qo'liga olgan Beshinchi. - Tepada sandan katta odamlar o'tirishihti. O'yplashadi⁶. Bunday shu narsa anglashiladiki, hatto o'z hayoti haqida ham o'ylash, fikr yuritishga dangasalik qilgan, fikran tanbal kishilar qiyofasi tasvirlab berilgan.

Aslida, fikrlamaydigan, yon-atrofidagi hodisalar haqida tafakkur qilmaydigan odam inson emas. Insonlik sha'nidan mosuvo u. Hikoyadagi qahramonlar ham o'zlarining insonligini, g'ayriinsoniy sharoitda yashayotganini anglamaydi. Muallif noyob bir badiiy reallik yaratib, unday muhitda faqat ma'naviy dunyosidan, ongidan, aqliy tafakkuridan mahrum kimsalarga yashashi mumkinligini, hatto mana shunday badbaxtligini, fojiani his qilmagan, xayoliga ham keltirmagan

⁶ Asqad Muxtor. Chodirxayol // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 1988. - 26 fevral.

odamsimon maxluqlar umr o'tkazishga mahkumligini achchiq kinoya bilan ko'rsatgan.

G'or og'zini tuproq bosib, ichkarida qolib ketgan yettovlonga sharoitga qarab "o'zları ehtiyyot bo'lib mustaqil harakat qilishlari kerakligi" haqida topshiriq keladi. Chunki tashqaridan ularni qutqarish uchun qazilsa, tepalikning biror joyini butunlay tuproq bosib qolishi mumkin edi. Ammo yettovlon buyruq olib, uni bajarishga odatlangan. Mustaqil harakat qilish uchun esa fikr kerak. Uni kimdir aytmasa, nimani bajaradi... Xullas, ularning kalamushchalik ham harakati yo'q. G'ordagi shu kalamush bo'l'maganida, ehtimol, ular yer ostida qolib ketishlari mumkin edi. Hikoya qahramonlari o'zlarining qo'lidan hech ish kelmasligini, "sharoitga qarab ehtiyyot bo'lib mustaqil harakat qilish"ni ham eplay olmaganidan uyalib, kalamush yo'l ko'rsatganini aslo boshqalarga aytib qo'ymaslik haqida o'zaro kelishib olishadi. Ushbu asar haqida iste'dodli adib va adabiyotshunos Xurshid Do'stmuhammad shunday yozadi: "Chodirxayol" hikoyasi qahramonlari o'zlarining fikrsizliklari bilan... o'zgalarni fikrlashga, fikriy faollikkaga undaydilar. O'z insoniy qadr-qimmatini anglab yetmaslik, hayotdagi o'rnnini farqlay olmaslik, surunkali fikriy tanballik odamni ma'naviy tubanlik sari tortib ketaveradi"⁷. Ustoz adib Asqad Muxtor ham ushbu hikoyasi bilan, bir tarafdan, sobiq sho'ro davrining muhitini tasvirlasa, ikkinchi tarafdan, fikriy tanballik, fikrsizlik orqali kitobxonni fikrlashga, tafakkur qilishga undaydi.

Adabiyotshunos olimning fikrlari, adabiy qarashlari ma'lum ma'noda uning badiiy ijodida ham aks etadi. Shu ma'noda, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning ko'pgina hikoya va qissalaridagi qahramonlar olam va odam, shaxs va jamiyat haqida fikrlaydigan, o'zini taftish qiladigan insonlardir. "Jajman" hikoyasidagi Zardusht bobo, "Jimjitxonaga yo'l"dagi Zohid Yaqin, "Vasiy"dagi Yigit, "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyasidagi Qadriya obrazlari tom ma'noda fikrlaydigan, ong-u tafakkuriga erk beradigan insonlar obrazidir. Lekin adib Xurshid Do'stmuhammad ham turli rang-barang mavzularda ijod qiladi, erkin va keng fikrlaydigan inson obrazi bilan bir qatorda fikrlashdan cho'chiyadigan, davralarda o'z so'zini aytmay, mojarolardan uzoqroq turishni xohlaydigan bir oz qo'rqoq, bir oz befarq insonlar xarakterini

⁷ Xurshid Do'stmuhammad. Ijod – ko'ngil munavvarligi. – T.: Mumtoz so'z, 2011. – B.22

ham o'z asarlarida ifodalab bergen. Ana shunday hikoyalaridan biri "Jim o'tirgan odam" deb nomlanadi. Bu hikoyaning qahramoni Qurbanali bevosita Asqad Muxtorning "Chodirxayol"dagi yettovltonni eslatadi. Qurbanali dastlab hur fikrlaydigan, ishxonada, jamoachilikda o'z qarashlarini aytib, kurashadigan inson sifatida shakllanadi. Biroq mavjud siyosiy tuzum insonlar qalbiga solgan qo'rquv Qurbanali otasining ongi va qalbini ham egallagan edi. Qurbanalining jasurligidan, tap tortmasligidan xavotirga tushgan ota o'g'lini chaqirib shunday deydi: "Sen botirgapchidan xavotirdaman. Murtingni mo'ychinak tishlamasidan burun ko'zingni och, man sani turmada chirib ketishing uchun emas, qarigan chog'imda suyanchig'im bo'lar degan umidda yuvib-taradim..."⁸ Mana shu ikki og'iz so'z Qurbanalini hushyor tortishga, ehtiyotkorroq bo'lishga majbur qildi. Sobiq sho'rolar tuzumidagi mafkura, mavjud jamiyat insonni nafaqat erkidan, balki fikr erkinligidan ham mahrum qilib qo'ygan edi. "Men senga tegmayman, sen ham menga tegma" qabilidagi shiorlarni insonlar ongiga singdirdi. Yozuvchining mahorati shundaki, "Kim dunyodan nimani istab o'tsa, albatta, shunga erishishini Qurbanali obrazi misolida yoritib bera oldi. Hikoya qahramoni jim o'tirishni xohlagan edi, asar so'ngiga borib tili soqovlanib, g'o'ldirab yaxshi gapirolmaydigan bo'lib qoladi. Lekin Qurbanali Yettovlondan farqli o'laroq nima uchun jim yurishini, gap-so'zlarga qo'shilmasligini sabablarini tahlil qila boshlaydi, o'z-o'ziga savol beradi, o'tmishini eslaydi, tinmay o'z-o'zini taftish qiladi. Nima uchun qo'shnisining ma'rakasiga borganini, muqarrar janjal bo'lishini sezsa-da, jim o'tirganini, qanday qilib Kimsanga duch kelganini o'ylab-o'ylab, sabab-oqibatlarning oxiriga yetolmaydi. O'tmish voqealari hikoya jarayonida retrospektiv syujet asosida Qurbanalining xotirasida qayta jonlanadi. Bunday syujet asosida qahramonning ruhiyati, qalb og'riqlari ham yoritilib borilgan.

Har bir davr haqida hikoya qiluvchi asarlar bo'lganidek sobiq sho'ro, buyruqbozlik davrining ham o'z asarlari mavjud. Yuqorida tahlilga tortilgan har ikki hikoyada ham davrning inson ongi-shuuriga ta'siri, sukut saqlashning oqibatlari, fikr erkinligining bo'g'ilishi kabi masalalar badiiy talqin qilingan. "Chodirxayol" hikoyasida bunday holat yaqqol ko'zga tashlansa, "Jim o'tirgan odam" hikoyasida atrofdagi

⁸ Xurshid Do'stmuhammad. Beozor qushning qarg'ishi. - T.: Sharq, 2006. - B.195

hodisalarga befarq bo'lib, qo'rkoqlik qilsa-da, ichki dunyosida o'z-o'zini tergov qilish natijasida fikrlashga moyil inson obrazi gavdalantirilgan.

Foydalanolgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Do'stmuhammad Xurshid. Beozor qushning qarg'ishi. – T.: Sharq, 2006.
2. Do'stmuhammad Xurshid. Ijod – ko'ngil munavvarligi. – T.: Mumtoz so'z, 2011.
3. Muxtor A. Chodirxayol // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1988-yil 26 fevral.
4. Quronov Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018.

Nurmuhammad AZIZOV
Andijon davlat universiteti doktoranti

ASQAD MUXTOR VA OMON MUXTOR ROMANLARIDAGI BIR MOTIV XUSUSIDA

Annotatsiya: Maqolada Asqad Muxtor va Omon Muxtor romanlaridagi qahramonning vaziyat taqozosi bilan almashib qolish motivi xususida so'z yuritilgan. Motivning mazmun-mohiyati, ikki adib ijodidagi farqli va mushtarak jihatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: motiv, qahramonning vaziyat taqozosi bilan almashib qolish motivi, badiiy niyat, psixologik holat, shaxs fojiasi

Adabiyotshunoslik lug'atida motivning yarim tayyor holda olinishi, mavjud motivlar aynan emas, o'zak saqlab qolningani holda yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati va ijodiy niyatidan kelib chiqib turli variantlarda talqin etilishi aytiladi. [Quronov D. v.b., 2013: 180-bet] Qahramonlarning vaziyat taqozosi bilan almashib qolish motivi folklorda ham, badiiy adabiyotda ham uchrab, g'oyaviy-badiiy niyat ijrosida muhim badiiy-estetik funksiya bajaradi.

Asqad Muxtorning "Chinor" va Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa" romanlari mavzu va badiiy muammo nuqtayi nazaridan jiddiy